

NURONIYLAR HOLIDAN XABAR OLINDI



Nuroniyalar holidan xabar olindi

Ramazon oyi – saxiylik, mehr-oqibat va bag'rikenglik oyidir. Bu qutlug' ayyomda mehr-shafqatli, kechirimli bo'lisl hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir.

Nuroniyalar, keksa-otaxon va onaxonlar, kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolar holidan xabar olish bizning xalqimizga xos fazilat hisoblanadi. Bu xislat ota-bobolarmizdan qolgan umrboqiy qadriyat sifatida bugungi avlodlarga ularashib kelinmoqda.

Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi kotibiyan mudiri Mas'udjon Jumayev bugun muborak Ramazon Hayiti arafasida ulug' ustozlar va nuroniylar holidan xabar olish maqsadida ularning xonadonlariga kirib bordi. Yuz bilan yuzlashgan otaxonlar-mehnat faxriylari Aslonboy-ota Tojiyev va Subhiddin Sharofiddinovlar bilan samimiy suhabat qilib ularga bayram sovg'alari taqdim etildi va albatta bu tashrifdan minnatdor bo'lgan nuroniylarimiz duoga qo'l ochdilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-20 14:58:36